mybank

| **“TASDIQLANDI”** | **“Ishlab chiqilgan”** | **«Разработано»** | **«УТВЕРЖДЕНО»** |
|---|---|---|---|
| “Madad Invest Bank” ATB<br>2025-yil “10”-noyabrdagi<br>108-sonli Bank Boshqaruvi qarori | “Madad Invest Bank” ATБ<br>Kredit portfel va monitoring<br>departamenti direktori | Директором департамента<br>кредитного портфеля и мониторинга<br>АКБ “Madad Invest Bank” | Решением Правления<br>АКБ «Madad Invest Bank» №108<br>от «10» ноября 2025 года |
| **F.Z. Mirzayev**<br>**Boshqaruv raisi** | S.A. Hakimov | С.А. Хакимов | **Ф.З. Мирзаев**<br>**Председателя Правления** |

# “MADAD INVEST BANK” ATB KREDIT OPERATSIYALARI BO‘YICHA GAROV TA’MINOTINI OZOD QILISH YOKI ALMASHTIRISH TARTIBI

# ПОРЯДОК ВЫСВОБОЖДЕНИЯ ИЛИ ЗАМЕНЫ ЗАЛОГОВОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПО КРЕДИТНЫМ ОПЕРАЦИЯМ АКБ «MADAD INVEST BANK»

| | |
|---|---|
| Ro‘yxat raqami<br>Регистрационный номер | 15-3-3 |
| Tahrir<br>Редакция | 1 |
| Amal qiladi<br>Действует с | 10.11.2025 |

Toshkent 2025

Ташкент 2025

| | | |
|---|---|---|
| **1.** | **1. Mundarija:**<br>**2.** Umumiy qoidalar;<br>**3.** Garov ta'minotini ozod qilish yoki almashtirish;<br>**4.** Talab etiladigan hujjatlar;<br>**5.** Javobgarlik;<br>**6.** Yakuniy qoidalar; | **1. Содержание:**<br>**2.** Общие положения;<br>**3.** Высвобождение или замена залогового обеспечения;<br>**4.** Требуемые документы;<br>**5.** Ответственность;<br>**6.** Заключительные положения. |
| **2.** | **UMUMIY QOIDALAR** | **ОБЩИЕ ПОЛОЖЕНИЯ** |
| | **1. "Madad Invest Bank" ATB Kredit operatsiyalari bo'yicha garov ta'minotini ozod qilish yoki almashtirish tartibi** (keyingi o'rinlarda – "Tartib") "Madad Invest Bank" ATBda kredit ta'minoti tarkibida bir garov mulkini bosqichma-bosqich qisman bo'shatish yoki boshqa garov mulkiga almashtirishning umumiy qoidalarini belgilaydi. | **1. Порядок высвобождения или замены залогового обеспечения по кредитным операциям АКБ «Madad Invest Bank»** (далее по тексту – «Порядок») определяет общие правила поэтапного частичного высвобожденя или замены одного залогового имущества на другое в составе обеспечения кредита в АКБ «Madad Invest Bank» (далее по тексту – «Банк»). |
| | **2.** Ushbu Tartib qoidalari Bank Mijozlarining xususiy mulkka bo'lgan huquqlarining daxlsizligini ta'minlashga, ularning huquqlarini to'sqinliksiz amalga oshirishga, shuningdek Bank manfaatlarini himoya qilish va kredit ta'minoti bilan bog'liq xatarlarni minimallashtirishga qaratilgan. | **2.** Положения настоящего Порядка направлены на обеспечение неприкосновенности прав на частное имущество Заемщиков Банка, обеспечение беспрепятственного осуществления своих прав, а также защиту интересов Банка и минимизацию рисков, связанных с обеспечением кредитов. |
| | **3.** Ushbu Tartib qoidalari kredit (qarz)ning turi, muddati va boshqa shartlaridan qat'iy nazar, barcha qarz oluvchilarga tatbiq etiladi, agar garov mulkining bir qismini bo'shatish yoki uni almashtirish huquqini cheklovchi shartlar mavjud bo'lmasa. | **3.** Положения данного Порядка распространяется на всех заемщиков, вне зависимости от типа, срока и других условий кредита (займа), при условии отсутствия условий, ограничивающих право высвобождения части залогового имущества или его замены. |

| 3. | GAROV TA'MINOTINI OZOD QILISH YOKI ALMASHTIRISH | ВЫСВОБОЖДЕНИЕ ИЛИ ЗАМЕНА ЗАЛОГОВОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ |
|---|---|---|
| | **1.** Har qanday kredit shartnomasi va/yoki Bosh bitim amal qilishi davomida Qarz oluvchi va/yoki Garov qo'yuvchi garov ta'minotini qisman yoki to'liq bo'shatish va/yoki garov ta'minotini almashtirish uchun Bankka ariza bilan murojaat qilish huquqiga ega.<br>**2.** Garov ta'minotini qisman bo'shatish kreditning asosiy qarzining qolgan summasiga mutanosib ravishda amalga oshiriladi va kreditni to'lash jadvalida nazarda tutilgan asosiy qarzning qisman to'lanishi sharoitida mumkin bo'ladi. Bunda likvid garov ta'minoti qoplamasi asosiy qarz qoldig'i summasining kamida 125 foizidan past bo'lishi mumkin emas, Bank bilan o'zaro bog'liq shaxslar uchun esa kamida 130 foiz bo'lishi lozim. Ayrim hollarda, chakana avtokreditlar pasportlari doirasida likvid garov ta'minoti qoplamasining minimal miqdori asosiy qarz qoldig'i summasining kamida 134 foizidan past bo'lmasligi belgilangan.<br>**3.** Garov ta'minotini almashtirish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:<br>– Garov ta'minotini almashtirish sabablari asoslangan holda Qarz oluvchi yoki Garovga qo'yuvchining murojaatiga ko'ra;<br>– Bankning talabiga binoan, joriy garov ta'minotining yo'qolishi, buzilishi yoki qiymati pasayishi munosabati bilan.<br>**4.** Garov ta'minotini bo'shatish yoki almashtirish tartibi Bankning ichki qoidalari, kredit mahsulotlari pasportlari hamda Bankning vakolatli organlari qarorlari asosida amalga oshiriladi.<br>**5.** Garov ta'minotini bo'shatish yoki almashtirish masalalarini ko'rib chiqish uchun Qarz oluvchi va/yoki Garov qo'yuvchi Bankka ariza | **1.** На протяжении действия любого кредитного договора и/или Генерального соглашения Заемщик и/или Залогодатель имеет право обратиться в Банк с ходатайством для частичного или полного высвобождения залогового обеспечения и/или замены залогового обеспечения.<br>**2.** Частичное высвобождение залогового обеспечения, осуществляется пропорционально оставшейся сумме основного долга по кредиту и возможно при частичном погашении основного долга, предусмотренного Графиком погашения кредита, при этом покрытие ликвидным залоговым обеспечением не может быть ниже 125% от суммы остатка основного долга, для взаимосвязанных с Банком лиц не менее 130%, в отдельных случаях в рамках паспортов розничных автокредитов устанавливается минимальная сумма покрытия ликвидным залоговым обеспечением не ниже 134% от суммы остатка основного долга.<br>**3.** Замена залогового обеспечения возможна:<br>– по ходатайству Заемщика или Залогодателя с обоснованием причин замены залогового обеспечения;<br>– по инициативе Банка, в связи с утратой, порчей или снижением стоимости текущего залогового обеспечения.<br>**4.** Порядок высвобождения или замены залогового обеспечения осуществляется в соответствии с внутренними правилами Банка, паспортами кредитных продуктов, решениями уполномоченных органов Банка. |

| | | |
|---|---|---|
| | bilan murojaat qilishi lozim. Arizada garov ta’minoti obyekti, ushbu obyekt garov ta’minoti tarkibiga kiruvchi kredit shartnomasi, shartnoma bo‘yicha berilgan kredit summasi, uning amal qilish muddati, garovni bo‘shatish yoki almashtirish sabablari asoslari hamda garov almashtirilayotgan hollarda yangi ta’minot obyekti haqida batafsil ma’lumot ko‘rsatilishi kerak.<br>**6.** Qarz oluvchi va/yoki Garov qo‘yuvchining garov ta’minotini bo‘shatish yoki almashtirish bo‘yicha murojaati Bankda belgilangan tartibda ro‘yxatga olinadi. To‘liq hujjatlar paketi taqdim etilgandan so‘ng, arizalarni ko‘rib chiqish va tasdiqlashning maksimal muddati 15 (o‘n besh) kalendar kundan oshmasligi lozim. Qo‘shimcha o‘rganish va (yoki) tekshiruv, qo‘shimcha hujjatlar talab etilgan hollarda esa, murojaat Bankka kelib tushgan kundan boshlab bir oy muddat ichida ko‘rib chiqilishi kerak. | **5.** Для рассмотрения вопросов, связанных с высвобождением или заменой залогового обеспечения Заемщик и/или Залогодатель должен обратиться с ходатайством в Банк, с указанием объекта залогового обеспечения, кредитного договора в рамках которого указанный объект является частью залогового обеспечения с указанием суммы предоставленного кредита по договору, срока его действия, обоснование причин для высвобождения или замены залогового обеспечения и подробное описание нового объекта обеспечения, в случаях замены залогового обеспечения.<br>**6.** Обращение Заемщика и/или Залогодателя о высвобождении или замене залогового обеспечения подлежит регистрации в Банке в установленном порядке. После предоставления полного пакета документов предельные сроки рассмотрения и одобрения заявок не должны превышать 15 (пятнадцать) календарных дней, а при необходимости дополнительного изучения и (или) проверки, запроса дополнительных документов – в срок до одного месяца со дня поступления обращения в Банк |
| **4.** | **TALAB ETILADIGAN HUJJATLAR** | **ТРЕБУЕМЫЕ ДОКУМЕНТЫ** |
| | **1. Jismoniy shaxslarning** garov ta’minotini qisman ozod qilish to‘g‘risidagi murojaatlari bo‘yicha quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:<br>– qarz oluvchi va/yoki Garovga qo‘yuvchining garov ta’minotini ozod qilish yoki almashtirish to‘g‘risidagi murojaati;<br>– murojaat qilgan shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjat;<br>– agar mavjud bo‘lsa boshqa garovga qo‘yuvchilarning, garov | **1.** При обращениях **физических лиц** о частичном высвобождении залогового обеспечения предоставляются следующие документы:<br>– ходатайство Заемщика и/или Залогодателя о высвобождении или замене залогового обеспечения;<br>– документ, удостоверяющий личность, обратившегося лица;<br>– согласие других Залогодателей на изменение состава |

| | | |
|---|---|---|
| | ta’minoti tarkibini o‘zgartirishga roziligi;<br>– agar ariza murojaati Qarz oluvchining vakili tomonidan imzolangan bo‘lsa, harakatlarning qonuniyligini tasdiqlovchi ishonchnoma. | залогового обеспечения, если имеются другие Залогодатели;<br>– в случаях, если ходатайство подписано представителем Заемщика, надлежаще оформленная доверенность на правомерность действий. |
| | **2.** **Yuridik shaxslar** garov ta’minotini qisman ozod qilish to‘g‘risida murojaat qilganda quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:<br>– qarz oluvchi va/yoki Garovga qo‘yuvchining garov ta’minotini ozod qilish yoki almashtirish to’g’risidagi murojaati;<br>– so‘nggi hisobot sanasidagi moliyaviy hisobot;<br>– boshqa banklarda ochilgan hisob raqamlari bo‘yicha aylanmalar (agar shunday hosob raqamlar mavjud bo‘lsa);<br>– boshqa Garovga qo‘yuvchilarning, agar mavjud bo‘lsa, garov ta’minoti tarkibini o‘zgartirishga roziligi;<br>– avval olingan kredit bo‘yicha garov ta’minoti tuzilmasini o‘zgartirishga oid ta’sischi (ta’sischilar) qarori (bayonnomasi).<br>– agar ariza murojaati Qarz oluvchining vakili tomonidan imzolangan bo‘lsa, harakatlarning qonuniyligini tasdiqlovchi ishonchnoma. | **2.** При обращении **юридических лиц** о частичном высвобождении залогового обеспечения предоставляются следующие документы:<br>– ходатайство Заемщика и/или Залогодателя о высвобождении или замене залогового обеспечения;<br>– финансовая отчетность Заемщика на последнюю отчетную дату;<br>– обороты по счетам Заемщика открытых в других банках, при наличии таковых счетов;<br>– согласие других Залогодателей на изменение состава залогового обеспечения, если имеются другие Залогодатели;<br>– Решение (протокол) учредителя (-ей) на изменение структуры залогового обеспечения по раннее полученному кредиту;<br>– в случаях, если ходатайство подписано представителем юридического лица, доверенность на правомерность действий. |
| | **3.** Garov ta’minotini almashtirish holatlarida, 4.1 va 4.2-bandlarda ko‘rsatilgan hujjatlardan tashqari, qo‘shimcha ravishda quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:<br>– mulk huquqi paydo bo‘lganligini, mulk huquqi o‘tganligini, | **3.** В случаях замены залогового обеспечения, помимо документов указанных в пунктах 4.1 и 4.2 дополнительно предоставляются следующие документы:<br>– документы, подтверждающие государственную регистрацию |

| | | |
|---|---|---|
| | mol-mulkka xo‘jalik yuritish huquqi davlat ro‘yxatidan o‘tganligini tasdiqlovchi hujjatlar (guvohnomalar; ro‘yxatdan o'tish guvohnomalari); | возникновения, перехода права собственности, права хозяйственного ведения на имущество (регистрационные удостоверения, свидетельства (удостоверения); |
| | – mol-mulkka egalik qilish yoki xo‘jalik yuritish huquqini olishga asos bo‘lgan hujjatlar (oldi-sotdi shartnomalar, hadya, ayirboshlash va boshqalar, qabul qilish va topshirish dalolatnomalari, tovar va tovar-tashish hisobvaraqlari, meros huquqini tasdiqlovchi guvohnomalar, sud qarorlari va boshqalar); | – документы, на основании которых приобретено право собственности или хозяйственного ведения на имущество (договоры купли-продажи, дарения, мены, отступного и др., акты приема-передачи, товарные и товарно-транспортные накладные, свидетельства о праве на наследство, решения судов и т.д.); |
| | – sug‘urta polisi (mol-mulkni sug‘urta qilishda); `` | – страховой полис (при страховании имущества); |
| | – agar jismoniy shaxs bo‘lsa, Mulkdorning shaxsini tasdiqlovchi hujjat nusxasi; | – копия документа, удостоверяющего личность собственника, если это физическое лицо; |
| | – Agar mulkdor yuridik shaxs bo‘lsa: | – если собственником является юридическое лицо: |
| | • ustav; | • устав; |
| | • davlat ro‘yxatidan o‘tganlik haqida guvohnoma; | • свидетельство о государственной регистрации; |
| | • Ta’sischi, direktor va bosh buxgalterning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarning nusxalari; | • копии документов, удостоверяющих личность учредителя, директора и главного бухгалтера; |
| | • Direktor va bosh buxgalterni tayinlash buyrug‘i nusxasi; | • копия Приказа на назначение директора и главного бухгалтера; |
| | – Bankning Garov va baholash hodimlari tomonidan tayyorlangan mol-mulk bahosi to‘g‘risidagi hisobot, murojaat sanasidan 6 oydan ko‘p bo‘lmagan muddatda hisobot tuzilgan bo‘lishi kerak; | – Отчет об оценке имущества, подготовленный сотрудниками Управления и оценки Банка, период от даты составления которого не превышает 6 месяцев до дня обращения; |
| | – Mulkdorning mol-mulkni garov ta’minoti sifatida berishga roziligi *; | – согласие собственника на предоставление имущества в качестве залогового обеспечения*; |
| | ** Taklif etilayotgan garov ta’minotining baholash jarayoni Bank tomonidan mustaqil ravishda, ushbu garov obyekti egasi bilan* | **оценка предлагаемого залогового обеспечения производится самостоятельно со стороны Банка, совместно с владельцем* |

| | Uzbek | Русский |
|---|---|---|
| | *birgalikda amalga oshiriladi.* | *данного объекта залога.* |
| | **4.** Kredit shartnomasiga va boshqa kredit xarakteridagi shartnomalarga garov ta'minotini ozod qilish yoki almashtirish yuzasidan o'zgartirishlar kiritish Bankning vakolatli kollegial organining ijobiy qarori asosida amalga oshiriladi.<br>**5.** Bankning vakolatli kollegial organi tomonidan garov ta'minotini ozod qilish yoki almashtirish va tegishli qaror qabul qilish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqish natijalari bo'yicha Qarz oluvchiga qaror qabul qilingan sanadan boshlab 3 (uch) bank ish kuni mobaynida qabul qilingan qaror to'g'risida xabarnoma yuboriladi.<br>**6.** Garov ta'minotini ozod qilishni yoki garov ta'minotini almashtirishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, Qarz oluvchi va/yoki Garovga qo'yuvchi rad etish sabablari asoslangan holda quyidagilarni o'z ichiga olgan yozma shaklda xabardor qilinadi:<br>– rad etish to'g'risida qaror qabul qilish uchun asos bo'lgan sabablar;<br>– aniqlangan qoidabuzarliklar yoki kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflar (agar ularni bartaraf etish mumkin bo'lsa);<br>– rad etish sabablari bartaraf etilgandan keyin, Qarz oluvchining takroriy murojaat qilish huquqi to'g'risidagi axborot.<br>**7.** Garov ta'minotini ozod qilish yoki almashtirish bo'yicha murojaatlar quyidagi shartlar bajarilgan taqdirda Bank tomonidan ko'rib chiqilishi mumkin:<br>– kredit shartnomasi bo'yicha joriy muddati o'tgan qarzdorlikning mavjud emasligi va Qarz oluvchi tomonidan Bank bilan tuzilgan | **4.** Внесение изменений в кредитный договор и иные договоры кредитного характера, в части освобождения либо замены залогового обеспечения осуществляется на основании положительного решения уполномоченного коллегиального органа Банка.<br>**5.** По результатам рассмотрения уполномоченным коллегиальным органом Банка вопроса об освобождении или замене залогового обеспечения и принятии соответствующего решения, Заемщику направляется уведомление о принятом решении в течение 3 (трех) рабочих дней с даты принятия решения.<br>**6.** В случае принятия решения об отказе в высвобождении либо в замене залогового обеспечения Заемщик и/или Залогодатель уведомляются в письменной форме с обоснованием причин отказа, содержащего:<br>– причины, послужившие основанием для принятия решения об отказе;<br>– предложения по устранению выявленных нарушений или недостатков (при возможности их устранения);<br>– информацию о праве Заемщика на повторное обращение после устранения причин отказа.<br>**7.** Обращения о высвобождении или замене залогового обеспечения могут быть рассмотрены Банком при соблюдении следующих условий:<br>– отсутствие текущей просроченной задолженности по договору кредитного характера и соблюдение Заемщиком |

| | | |
|---|---|---|
| | shartnomalar shartlariga rioya etilishi;<br>– garov ta'minoti summasi Bankning kredit siyosatida belgilangan ta'minot miqdori/garov summasi miqdorini inobatga olgan holda, kredit shartnomasiga asosan to'lanmagan qarz miqdoridan ortiq bo'lsa;<br>– garov ta'minotini ozod qilish yoki almashtirish masalasini ko'rib chiqish uchun hujjatlarning to'liq to'plami taqdim etilishi.<br>**8.** Garov ta'minotini ozod qilish yoki almashtirish to'g'risidagi murojaatni ko'rib chiqilishida quyidagilar tekshiriladi:<br>– Qarz oluvchi tomonidan Bank bilan tuzilgan kredit va boshqa shartnomalar shartlarining bajarilishi;<br>– mavjud qarzni ta'minlash maqsadida qoplash darajasi va garov ta'minotining kutilayotgan garov qiymati ozod qilingandan yoki almashtirilgandan keyin (Bankning Garov va baholash boshqarmasi xulosasiga asosan);<br>– mol-mulkka bo'lgan huquq va mol-mulkka nisbatan yuklamalarning mavjudligi yoki yo'qligi.<br>**9.** Vakolatli organning ijobiy qaroriga asosan, Kredit portfel va monitoring qilish va undirish departamenti xodimi tomonidan belgilangan tartibda tegishli qo'shimcha kelishuvlar, garov shartnomalari va boshqa hujjatlar tayyorlanadi.<br>**10.** Bank quyidagi holatlardan biri mavjud bo'lganda garov ta'minotini ozod qilish yoki almashtirishni rad etish huquqiga ega:<br>– Bank oldidagi kredit shartnomasi yoki bank bilan tuzilgan boshqa shartnomalar bo'yicha qarz oluvchining joriy muddati o'tgan qarzdorligi va/yoki majburiyatlarni bajarmasligi; | условий заключенных договоров с Банком;<br>– сумма залогового обеспечения превышает размер непогашенной задолженности по договору кредитного характера с учетом размера обеспечения/суммы залога, установленного кредитной политикой Банка;<br>– предоставление полного пакета документов для рассмотрения вопроса о высвобождении или замене залогового обеспечения.<br>**8.** При рассмотрении обращения о частичном высвобождении или замене залогового обеспечения проверяется:<br>– исполнение Заемщиком условий, заключенного с Банком кредитного и иных договоров;<br>– степень покрытия имеющейся задолженности обеспечением и предполагаемой залоговой стоимости залогового обеспечения после высвобождения либо замены (на основе заключения Управления залога и оценки Банка);<br>– права на имущество, наличие либо отсутствие в отношении имущества обременений.<br>**9.** На основании положительного решения Уполномоченного органа, сотрудником Департамента кредитного портфеля и мониторинга Банка в установленном порядке подготавливаются соответствующие дополнительные соглашения, договор залога и прочие документы.<br>**10.** Банк вправе отказать в высвобождении или замене залогового обеспечения при наличии хотя бы одного из следующих обстоятельств:<br>– наличие текущей просроченной задолженности и/или |

| | | |
|---|---|---|
| | – qarz oluvchining moliyaviy ahvolining yomonlashuvi;<br>– Kredit shartnomasi va/yoki Bosh bitim shartlarining buzilishi (kreditni maqsadli yoʻnalishdan tashqari ishlatish).<br>– Qarz oluvchining moliyaviy holatining yomonlashishi;<br>– Moliyaviy va boshqa kovenantlarning buzilishi;<br>– qolgan ta’minotning yoki taklif etilayotgan ta’minotning qiymati yoki likvidligining yetarli emasligi;<br>– Qarz oluvchining zarur boʻlgan hollarda muqobil ta’minot taqdim etishdan bosh tortishi;<br>– Qisman garov boʻshatilgandan soʻng qolgan ta’minot Bank xatar darajasini qoplamasligi;<br>– Belgilangan LTV koeffitsientining buzilishi;<br>– taklif etilayotgan mol-mulkni garovga olishga toʻsqinlik qiluvchi joriy yuklamalarning mavjudligi aniqlanganda, shu jumladan mol-mulk yoki unga boʻlgan huquqlar boʻyicha sud nizolari, vakolatli davlat organlari tomonidan mol-mulkga nisbatan taqiq yoki boshqa cheklovlar mavjud boʻlganda;<br>– Bankda taklif etilayotgan garov ta’minotiga nisbatan garov huquqlarini amalga oshirishda ehtimoliy cheklovlar yoki toʻsiqlar mavjudligi toʻgʻrisida asosli ma’lumotlar mavjud boʻlganda, shu jumladan, ushbu turdagi garovning aylanmasini cheklaydigan qonunchilikdagi oʻzgarishlar, uchinchi shaxslarning taklif etilayotgan garov ta’minotiga da’volari mavjudligi va boshqalar;<br>– Qarz oluvchi va/yoki Garovga qoʻyuvchi tomonidan taqdim etilmagan yoki notoʻgʻri ma’lumotlar, shu jumladan moliyaviy | невыполнение Заемщиком обязательств перед Банком по договору кредитного характера, иным договорам, заключенным с Банком;<br>– нарушение условий по кредитному договору/генеральному соглашению (использование кредита не по целевому назначению);<br>– ухудшение финансового состояния Заемщика;<br>– нарушение финансовых и иных ковенантов;<br>– недостаточность стоимости либо ликвидности остающегося обеспечения, либо предлагаемого обеспечения;<br>– отказ заемщика предоставить альтернативное обеспечение (если оно требуется);<br>– недостаточность оставшегося обеспечения (после частичного высвобождения залога оставшееся имущество не покрывает уровень риска Банка;<br>– нарушение установленного коэффициента LTV;<br>– выявление наличия текущих обременений, препятствующих принятию предлагаемого имущества в залог, включая наличие судебных споров в отношении имущества или прав на него, ареста или иных ограничений на имущество, уполномоченными государственными органами;<br>– при наличии у Банка обоснованных сведений о возможных ограничениях или препятствиях для реализации залоговых прав в отношении предлагаемого обеспечения, включая предстоящие изменения в законодательстве, ограничивающие оборот данного вида залога, наличие |

| | | |
|---|---|---|
| | ahvoli, faoliyati yoki taqdim etilayotgan garov obyekti haqida yolg‘on ma’lumotlarning taqdim etilishi;<br>– Ehtimoliy to‘lovga qodir emaslik va bankrotlik alomatlarining mavjudligi;<br>– Garovni bo‘shatish tartibi kelishilmaganligi (garov tegishli so‘rov va zarur hujjatlar taqdim etilmasdan bo‘shatilishi mumkin emas);<br>– Sud da’volari yoki hibslarning mavjudligi (bo‘shatilishi lozim bo‘lgan mulkka hibs yoki cheklovlar qo‘yilgan, yoxud mulk huquqi yoki qarz oluvchining majburiyatlari bo‘yicha nizolar mavjud);<br>– Qonunchilik va Bankning ichki normativ hujjatlarida nazarda tutilgan majburiy roziliklarning mavjud emasligi;<br>– Bank tomonidan oshirilgan xatar darajasi to‘g‘risida qaror qabul qilinishi (qarz oluvchi yoki uning faoliyati haqida noqulay ma’lumotlarning paydo bo‘lishi);<br>– Qolgan ta’minot yoki taklif etilayotgan ta’minotning qiymati yoki likvidligi yetarli emasligi.<br>– qonunchilik va Bankning ichki me’yoriy hujjatlariga muvofiq majburiy ravishda olinishi kerak bo‘lgan shaxslarning roziligi mavjud emasligi;<br>– boshqa asosli holatlar.<br>**11.** Kredit shartnomasi shartlariga muvofiq, bank kredit bo‘yicha qarzdorlikni so‘ndirish maqsadida garov obyektini qonunda belgilangan tartibda, garovga qo‘yuvchi bilan kelishgan holda sudga murojaat qilmasdan sotish huquqiga ega. Garov obyektini sotish va undan tushgan mablag‘lar hisobidan qarzdorlikni | претензий со стороны третьих лиц на предлагаемое залоговое обеспечение и т.д.;<br>– наличие признаков возможной неплатежеспособности и банкротства;<br>– отсутствие согласования процедуры освобождения залога (залог не может быть освобожден без предоставления соответствующего запроса и необходимого пакета документов);<br>– наличие судебных споров или арестов (на имущество, подлежащее высвобождению, наложены аресты или обременения или имеются споры по праву собственности или обязательствам заемщика);<br>– отсутствие согласия лиц, обязательность предоставления которого предусмотрена законодательством и внутренними нормативными документами Банка;<br>– Банк принял решение о повышенном риске (появление неблагоприятной информации о заемщике или его деятельности);<br>– недостаточность стоимости либо ликвидности оставшегося обеспечения, либо предлагаемого обеспечения;<br>– непредставление или предоставление недостоверных сведений Заемщиком и/или Залогодателем, включая информацию о финансовом состоянии, деятельности или предоставляемом в качестве обеспечения предмете залога;<br>– иные обоснованные случаи.<br>**11.** В соответствии с условиями кредитного договора в целях погашения задолженности по кредиту Банк вправе реализовать |

| | | |
|---|---|---|
| | qoplashdan so‘ng, bank sotilgan garov obyektini tushgan mablag‘larni kredit bo‘yicha qarzdorlikni va boshqa xarajatlarni qoplashga yo‘naltirilganligi to‘g‘risida Qarz oluvchiga va Garov qo‘yuvchiga yozma ravishda ma’lumot yuboradi.<br>**12.** Kredit bo‘yicha qarz to‘liq so‘ndirilgan taqdirda, Bank garov ta’minotini ozod qiladi hamda 3 ish kuni ichida Garov reestridan tegishli yozuvlarni chiqarib tashlaydi va “Notarius” tizimida taqiqlarni olib tashlaydi. | предмет залога во внесудебном порядке по соглашению с залогодателем в порядке, установленном законом. После реализации и погашения предмета залога, Банк направляет Заемщику и Залогодателю в письменной форме информацию о направлении вырученных от продажи предмета залога денежных средств на погашение задолженности по кредиту и иные расходы.<br>**12.** В случае полного погашения задолженности по кредиту Банк высвобождает залоговое обеспечение и исключает соответствующие записи из Залогового реестра и снимает запрет в ИАС «Нотариус» в течение 3 рабочих дней. |
| **5.** | **JAVOBGARLIK** | **ОТВЕТСТВЕННОСТЬ** |
| | **1.** Bank xodimlari tomonidan ushbu Tartib qoidalarining buzilishi qonunchilikda belgilangan tartibda ularni javobgarlikka tortish uchun asos bo‘lishi mumkin. | **1.** Нарушение сотрудниками Банка положений настоящего Порядка может служить основанием для привлечения его к ответственности в порядке, установленном законодательством. |
| **14.** | **YAKUNIY QOIDALAR** | **ЗАКЛЮЧИТЕЛЬНЫЕ ПОЛОЖЕНИЯ** |
| | **1.** Ushbu Tartib Bank Boshqaruvi tomonidan tegishli qaror bilan tasdiqlangan va kuchga kiritilgan paytdan boshlab amal qiladi. | **1.** Настоящий Порядок вступает в силу с момента его утверждения и введения в действие соответствующим решением Правления Банка. |
| | **2.** Ushbu Tartibda o‘z aksini topmagan masalalar Bankning Kredit siyosati, Bankning ichki qoidalari, Bank Ustavi va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan tartibga solinadi. | **2.** Вопросы, не нашедшие отражение в настоящем Порядке, регулируются Кредитной политикой Банка, внутренними правилами Банка, Уставом банка и законодательством Республики Узбекистан. |
| | **3.** Agar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, normativ hujjatlari yoki Bank Ustavida o‘zgarishlar natijasida ushbu Tartibning ayrim | **3.** Если в результате изменения законодательства, нормативных актов Республики Узбекистан или Устава Банка отдельные |

| | | |
|---|---|---|
| | bandlari ularga zid bo‘lib qolsa, mazkur bandlar o‘z kuchini yo‘qotadi va ushbu Tartibga tegishli o‘zgartirishlar kiritilguniga qadar Bank O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, qonunosti normativ-huquqiy hujjatlari hamda Bank Ustavi qoidalariga amal qiladi. | пункты настоящего Порядка вступают в противоречие с ними, эти пункты утрачивают силу и до момента внесения изменений в настоящий Порядок Банк руководствуется законами, подзаконными нормативно-правовыми актами Республики Узбекистан и положениями Устава Банка. |
| | **4.** Ushbu Tartib ikki tilda tasdiqlangan hisoblanadi. Tafovutlar yuzaga kelgan taqdirda, ushbu Tartibning rus tilidagi matn ustuvor hisoblanadi. | **4.** Настоящий Порядок считается утвержденной на двух языках. При возникновении разночтений, преобладающей считается версия настоящего Порядка на русском языке. |